

TERMINOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY ASOSLARI, SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Xakimova Dilrabo Yo‘ldoshovna,
Renessans ta’lim universiteti katta o‘qituvchisi
d.hakimova1971@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada terminologiya va leksikografiyaning nazariy asoslari, shakllanish tarixi, asosiy ilmiy maktablari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni yoritiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va bilimlar almashinuvi natijasida maxsus leksikaning milliy tillar lug‘aviy tarkibidagi salmog‘i keskin ortayotgani asoslab beriladi. Termin tushunchasining mazmuni, unga berilgan turli ta’riflar, terminning asosiy belgilari, normativ va funksional yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Vena, Kanada va rus terminologik maktablarining ilmiy qarashlari umumlashtirilib, o‘zbek tilshunosligida terminologiya va terminografiya bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada leksikografiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati, elektron lug‘atlar, kompyuter leksikografiyasi va zamonaviy terminologik lug‘atlar yaratish tamoyillari ham tahlil etiladi. Natijada terminologiya va leksikografiyaning bugungi til taraqqiyotidagi strategik ahamiyati, ayniqsa sohaviy terminlarni tizimlashtirish, izohlash va standartlashtirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, leksikografiya, terminografiya, maxsus leksika, termin tizimi, ilmiy uslub, elektron lug‘at, o‘zbek tilshunosligi, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы терминологии и лексикографии, история их формирования, основные научные школы и их место в современной лингвистике. Обосновывается, что в результате научно-технического прогресса, стремительного развития информационных технологий и активного обмена знаниями значительно возрастает удельный вес специальной лексики в словарном составе национальных языков. Анализируются содержание понятия «термин», различные определения данного понятия, основные признаки терминов, а также нормативные и функциональные подходы к их изучению. Кроме того, обобщаются научные взгляды Венской, Канадской и русской терминологических школ, а также обозначаются основные направления исследований в области терминологии и терминографии в узбекском языкознании. В статье также анализируются научное и практическое значение лексикографии, электронные словари, компьютерная лексикография и принципы создания современных терминологических словарей. В результате раскрывается стратегическое значение терминологии и лексикографии в современном развитии языка, особенно их роль в систематизации, толковании и стандартизации отраслевых терминов.

Ключевые слова: термин, терминология, лексикография, терминография, специальная лексика, терминологическая система, научный стиль, электронный словарь, узбекское языкознание, сравнительный анализ.

Abstract. The article examines the theoretical foundations of terminology and lexicography, their history of formation, major scientific schools, and their role in modern linguistics. It substantiates that as a result of scientific and technological progress, the rapid development of information technologies, and the intensive exchange of knowledge, the share of specialized vocabulary in the lexical structure of national languages is significantly increasing. The study analyzes the concept of the term, various definitions proposed for it, the main features of terms, as well as normative and functional approaches to their study. In addition, the scientific views of the Vienna, Canadian, and Russian schools of terminology are summarized, and the main directions of research on terminology and terminography in Uzbek linguistics are outlined. The article also analyzes the scientific and practical significance of lexicography, electronic dictionaries, computer lexicography, and the principles of creating modern terminological dictionaries. As a result, the strategic importance of terminology and lexicography in contemporary

language development is revealed, particularly their role in the systematization, interpretation, and standardization of specialized terms.

Keywords: *term, terminology, lexicography, terminography, specialized vocabulary, terminological system, scientific style, electronic dictionary, Uzbek linguistics, comparative analysis.*

Kirish. Hozirgi davrda ilmiy-texnik tafakkurning jadal kengayishi, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi dinamik o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi til tizimini chuqur va ko'p qirrali o'rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, fan va texnika yutuqlari, yangi tajriba hamda bilimlar almashinuvi natijasida yuzaga kelayotgan terminlar milliy tillarning lug'aviy tarkibini izchil boyitib bormoqda. Zamonaviy tillarda shakllanayotgan neologizmlarning katta qismi aynan maxsus leksika hissasiga to'g'ri kelishi terminologiyaning bugungi til taraqqiyotidagi o'rnini yanada kuchaytiradi.

Terminlarning nafaqat muayyan soha ichida, balki umumxalq lug'atiga ham faol kirib borishi natijasida terminologiyaga oid masalalar til tizimining barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois maxsus leksikani o'rganish til taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kommunikativ jarayonning samaradorligi esa terminlarning uyg'unlashtirilishi, standartlashtirilishi va tizimlashtirilishiga bevosita bog'liq.

Terminologiya keng ma'noda fan, texnika, biznes, logistika, ishlab chiqarish va ijtimoiy amaliyotning turli yo'nalishlarida qo'llaniladigan maxsus birliklar majmuini qamrab oladi. Tor ma'noda esa u muayyan bir fan yoki sohaning terminlar tizimi sifatida tushuniladi. Bugungi kunda terminologiya oddiy amaliy faoliyat emas, balki o'z nazariy asoslari, metodologik yo'nalishlari va ilmiy tamoyillariga ega tizimli bilim sohasi sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiyaning zamonaviy ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi XX asrning birinchi yarmiga, xususan 1930-yillarga borib taqaladi. Dastlab terminologik faoliyat ko'proq havaskorlik darajasida bo'lib, ayrim fan namoyandalari yoki amaliyotchilar tomonidan olib borilgan bo'lsa, keyinchalik bu yo'nalish mustaqil ilmiy sohaga aylandi.

XVIII–XIX asrlarda terminologiya bilan asosan olimlar shug'ullangan bo'lsa, XX asrda texnika, muhandislik va ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar ushbu jarayonda yetakchi mavqeni egallay boshladilar. Bunga sabab texnologik taraqqiyot tufayli yangi tushunchalarni nomlash, mavjud terminlarni aniqlashtirish va yagona me'yorlarga keltirish zarurati kuchayganidir.

Zamonaviy terminologiya nazariyasining shakllanishida Vena maktabi alohida o'rin tutadi. Uning yetakchi vakili, avstriyalik olim E. Vyuster terminologiyaning ilmiy asoslarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynadi. U terminologik ishlash usullarini misollar asosida tizimlashtirib, terminlar bilan ishlashning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi. Vyusterning ilmiy qarashlarida terminologik faoliyatning amaliy yo'naltirilgani, xalqaro terminologik lug'atlar yaratishga oid ko'rsatmalar ishlab chiqilgani va terminologik tuzilmalarni muvofiqlashtirish masalalarining ko'tarilgani ayniqsa muhimdir.

Kanada terminologiya maktabi ham keyingi bosqichlarda terminologiya nazariyasining rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. Shu bilan birga, sobiq SSSR hududida terminologiya mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanganini ko'rsatadigan tadqiqotlar ham mavjud. Bu esa terminologiyaning nafaqat G'arb, balki Sharq va postsovet ilmiy makonida ham faol rivojlanganini ko'rsatadi.

Rossiyada terminologiyaga ehtiyoj fan va texnikaning jadal taraqqiyoti, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida ko'plab ilmiy va muhandislik kadrlarini tayyorlash zarurati bilan izohlanadi. Bu jarayon 1931-yilda D.S. Lottening texnik terminologiyani standartlashtirish va unifikatsiya qilishga bag'ishlangan konseptual maqolasi bilan yangi bosqichga ko'tarildi.

D.S.Lotte terminlarni standartlashtirish, yangi terminlar shakllantirish, terminologik tizimlar yaratish va ilmiy-texnik terminlarning tarjimasini bilan bog'liq muammolarni markaziy tadqiqot obyektiga aylantirdi. U rus terminologik maktabining asoschilaridan biri sifatida terminologiyaning amaliy va nazariy asoslarini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi.

A.A. Reformatskiy, G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, R.A. Budagov, A.S. Gerd, O.S. Axmanova, V.P. Danilenko, S.V. Grinev-Grinevich kabi olimlar rus terminologik maktabining rivojida muhim o'rin tutadi. Xususan, G.O. Vinokur terminning lingvistik tabiati, terminologiya va nomenklatura munosabatlari, so'z yasalishi va termin shakllanishi masalalarini chuqur tahlil qilgan. 1960-yillar oxiri va 1970-yillar boshida terminologiyaning mustaqil fan sifatida tan olinishi bu yo'nalish taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Terminologiya va leksikografiyaga oid ilmiy manbalar, lug'atlar hamda tilshunos olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinib, termin tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari umumlashtirildi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligidagi terminologik tadqiqotlar materiallari asosida terminlarning funksional xususiyatlari va ularning lug'aviy tizimdagi o'rni ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlillar va natijalar. "Termin" tushunchasi tilshunoslikdagi eng bahsli va ko'p talqin qilinadigan kategoriyalardan biridir. Uning etimologik ildizi lotincha *terminus* so'ziga borib taqalib, "chegara", "chek", "belgi" ma'nolarini anglatadi. Bu esa terminning muayyan soha doirasida aniq mazmuni belgilovchi birlik ekanini ko'rsatadi.

Umumiy ma'noda termin inson faoliyatining ma'lum bir sohasi uchun xos bo'lgan maxsus leksik birlik bo'lib, u predmet yoki hodisa haqidagi tushunchaning aniq va barqaror ifodasi vazifasini bajaradi. Ilmiy manbalarda terminning semantik qamrovi keng talqin qilinib, fan va texnika birliklari bilan bir qatorda kasb-hunar leksikasi ham terminologik tizim tarkibiga kiritiladi.

Termin mohiyatini izohlashda turli yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar termini mantiqiy yondashuv asosida sharhlasalar, boshqalar uning lingvistik belgi va

xususiyatlarini tavsiflashga urg'u beradilar. Yana bir guruh olimlar termini boshqa til birliklariga qarshi qo'yish orqali aniqlashga harakat qiladilar. Bu esa terminning universal, barcha tomonidan bir xil qabul qilingan yagona ta'rifi yo'qligini ko'rsatadi.

S. Usmonov o'zbek tilshunosligida termin va oddiy so'z o'rtasidagi farqlarni ilk tahlil qilgan olimlardan biri sifatida termini gap tarkibidan tashqarida ham aniq ma'noni ifodalaydigan so'z yoki barqaror so'z birikmasi sifatida ta'riflaydi. A.A. Reformatskiy terminlarni intellektual jihatdan tartibga solingan ijtimoiy voqelikni ifodalovchi maxsus birliklar deb baholaydi. V.M. Leychik esa har bir fan terminning o'zi uchun muhim belgisini ajratib ko'rsatishini qayd etadi.

Terminologiyaga oid dastlabki nazariy tadqiqotlardan oq terminga muayyan talablar qo'yilgan. Vena maktabi vakillari, xususan E. Vyuster, har bir tushuncha bir termin bilan ifodalanishi va aksincha, har bir termin bitta tushunchaga mos kelishi zarurligini ta'kidlagan. Demak, terminning asosiy belgilaridan biri yakkama'nolilikdir.

Stefan Mladenov termin uchun aniqlik, yakkama'nolilik, lingvistik shaklning motivatsiyalanganligi, sinonimiyaning yo'qligi va so'z yasaliş imkoniyatlarini muhim talablar sifatida ko'rsatadi. S.V. Grinev-Grinevich termini sintaktik, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, termin:

- tuzilish va shaklga ega birlik,
- aniq mazmuni ifodalovchi belgi,
- muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi vositadir.

S.D. Shelov terminning quyidagi muhim xususiyatlarini ko'rsatadi: tushuncha bilan uzviy bog'liqlik, yakkama'nolilikka intilish, stilistik neytrallik, ekspressiv bo'yoqning yo'qligi, nominativlik va tizimlilik.

Biroq amaliyotda barcha terminlar ushbu ideal talablarga to'liq javob bermaydi. Ayrim terminlar ko'p ma'noli bo'lishi, sinonimlarga ega bo'lishi, vaqt o'tishi bilan ma'no kengaytirishi yoki umumiste'mol leksikaga aylanishi mumkin. Shu jihatdan terminologiya doimo harakatdagi va rivojlanib boruvchi tizim sifatida qaraladi.

Terminning mohiyatini belgilashda ikki asosiy nazariy yondashuv shakllangan: normativ va deskriptiv yondashuv.

Normativ yondashuv tarafdorlari termini maxsus belgilarga ega bo'lishi lozim bo'lgan alohida birlik deb qaraydilar. Ularning fikricha, termin yakkama'noli, aniq, talaffuzi qulay, mazmuni ravshan va sinonimlardan xoli bo'lishi kerak. D.S. Lotte, V.P. Danilenko va boshqa ko'plab olimlar shu qarashni qo'llab-quvvatlaganlar.

Deskriptiv yoki funksional yondashuv esa ancha moslashuvchanroqdir. G.O. Vinokur va uning izdoshlari istalgan so'z muayyan vaziyatda termin vazifasini bajarishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuvga ko'ra, terminlar maxsus shakllar emas, balki maxsus kommunikativ funksiyani bajaruvchi birliklardir. D.A. Rozarenov ham deyarli har qanday so'z termin maqomini olishi, aksincha, termin umumiste'mol so'zga aylanishi mumkinligini qayd etadi.

Mazkur yondashuv termin va umumiste'mol leksika o'rtasidagi chegaraning mutlaq emas, balki nisbiy ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy terminologik tadqiqotlar aynan shu funksional qarashga tobora ko'proq yaqinlashmoqda.

O'zbek tilshunosligida "termin" va "atama" birliklarining o'zaro munosabati ham alohida ilmiy bahs mavzusidir. Amaliy qo'llanishda bu ikki birlik ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq ayrim olimlar, jumladan A. Hojiyev, "termin" va "atama"ni to'liq sinonim deb qarashni maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi. Chunki "termin" xalqaro ilmiy birlik sifatida ancha tor va aniq semantik qamrovga ega bo'lsa, "atama" so'zi ba'zan undan kengroq ma'noda qo'llanadi.

Shuningdek, terminologik tizim doirasida terminoid, prototermin, kvazitermin, predtermin kabi oraliq birliklar ham mavjud. V.M. Leychikning fikricha, har bir termin "tug'ilish", "yetuklik" va "so'nish" bosqichlaridan o'tadi. Dastlab mutaxassis muayyan obyekt yoki hodisaga vaqtinchalik nom beradi. Keyinchalik bu birlik terminologik tizimda mustahkamlanishi yoki boshqa termin bilan almashishi mumkin. Demak, terminologik tizim statik emas, balki tarixiy taraqqiyotga ega dinamik tuzilmadir.

O'zbek ilmiy terminologiyasining shakllanishi va boyishida Behbudiy, Abdulla Avloniy, Nazir To'raqulov, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Qori Niyoziy, Hodi Zarif, Olim Sharafutdinov, Ibrohim Mo'minov, Yahyo G'ulomov kabi ma'rifatparvarlar va olimlarning xizmati kattadir. O'zbekistonning sovet davridagi siyosiy-madaniy muhiti o'zbek terminologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va dastlabki terminologik lug'atlarning ko'pi rus-o'zbek yo'nalishida yaratilgan.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida terminologiya bo'yicha tadqiqotlar ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchi yo'nalish o'zbek tili doirasida sohaviy terminologiya masalalarini o'rganishga qaratilgan. Bu borada U. Tursunov, S. Ibrohimov, S. Akobirov, O. Usmonov, R. Doniyorov, A. Hojiyev, H. Dadaboyev, A. Madvaliyev, X. Jamolxonov kabi olimlarning izlanishlari e'tiborga molik.

Ikkinchi yo'nalish qiyosiy tilshunoslik asosida o'zbek tilidagi terminlarni boshqa tillar materiallari bilan solishtirib o'rganishga qaratilgan. M.E. Umarxo'jayev, I.X. Sadikova, X.D. Paluanova, D. Saidqodirova, L. Raupova, O.S. Axmedov, D.X. Kadirbekova, N.S. Nurmatova va boshqa tadqiqotchilar shu yo'nalishda samarali ishlar olib borgan.

Lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi leksikografiya tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biridir. Lug'atlar nafaqat tilshunoslik, balki inson faoliyatining boshqa ko'plab sohalarida ham muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ilmiy adabiyotlar hajmi ortib borayotgan hozirgi davrda mutaxassislar uchun lug'atlar va ma'lumotnomalarning o'rni yanada kuchaydi.

Leksikografiyaning ilmiy-nazariy asoslari jahon tilshunosligida J. Kasares, L.V. Shcherba, V.V. Vinogradov, L.P. Stupin, Béjoint, Landau, Atkins, Rundell, Tarp, Bergeholtz singari olimlar tomonidan izchil ishlab chiqilgan. O'zbek amaliy

leksikografiyasining ildizlari esa Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab", Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlariga borib taqaladi.

XX asrda O'zbekistonda terminologik lug'atchilik alohida rivojlandi. Nazir To'raqulov tomonidan tuzilgan "Rus-o'zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamaları lug'ati" ana shu yo'nalishdagi ilk muhim ishlardan biri bo'ldi. Keyingi davrda o'zbek tilida fan va texnikaning deyarli barcha sohalari bo'yicha yuzlab terminologik lug'atlar yaratildi.

Terminologik leksikografiya yoki terminografiya bugungi kunda leksikografiyaning mustaqil bo'limi sifatida shakllangan. Uning asosiy vazifasi muayyan soha terminlarini yig'ish, tizimlashtirish, izohlash, tarjima ekvivalentlarini aniqlash va me'yorlashtirishdan iborat.

O'zbek tilshunosligida terminografiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ichida D. Xodjayeva, K. Alautdinova, D. Kadirbekova, O. Ruzmetova va boshqa olimlarning ishlari alohida ajralib turadi. Ular turli sohalarga oid terminologik lug'atlar yaratish prinsiplari, izohli va tarjima lug'atlar tuzish mezonlari, elektron lug'atlar uchun me'yoriy talablar masalalarini ishlab chiqqanlar.

Zamonaviy terminografiyada quyidagi masalalar ayniqsa muhim: lug'at turini aniqlash, foydalanuvchi auditoriyasini belgilash, terminlarni tematik guruhlariga ajratish, alifbo yoki uyali joylashtirish usulini tanlash, terminning izohi yoki ekvivalentini aniq berish, bosma va elektron formatlar o'rtasida funksional moslikni ta'minlash.

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi texnologik taraqqiyot elektron lug'atlarning paydo bo'lishiga va kompyuter leksikografiyasining shakllanishiga sabab bo'ldi. Elektron lug'atlar foydalanuvchi uchun tezkor qidiruv, tahrirlash, yangilash va ko'p funksiyali foydalanish imkonini beradi. Shu bois ular an'anaviy bosma lug'atlarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega.

Bugungi kunda kompyuter leksikografiyasini rivojlantirish uchun o'zbek tilida to'liq leksik baza yaratish, avtomatik tahrirlash tizimlarini joriy etish, mashina tarjimasi va axborot-qidiruv tizimlari uchun terminologik resurslar ishlab chiqish zarur. Bu esa leksikografiyaning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Terminologiya va leksikografiya bugungi tilshunoslikning eng dolzarb va strategik yo'nalishlaridan biridir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, global bilim almashinuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi maxsus leksikani chuqur o'rganish, terminlarni me'yorlashtirish va tizimlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Termin tushunchasi turli ilmiy maktablar va nazariy yondashuvlar doirasida xilma-xil talqin qilinsa-da, uning asosiy vazifasi muayyan sohaga oid tushunchani aniq va barqaror ifodalashdan iborat ekani o'zgarmaydi. Normativ va funksional yondashuvlar terminning

turli jihatlarini ochib beradi hamda terminologik tizimning murakkab va dinamik tabiatini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek tilshunosligida terminologiya va leksikografiya bo'yicha salmoqli ilmiy tajriba to'plangan. Biroq zamonaviy talablar, ayniqsa elektron lug'atlar, terminografik bazalar, korpus texnologiyalari va kompyuter leksikografiyasi yo'nalishlarida hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami keng. Shu sababli kelgusida sohaviy terminologiyalarni qiyosiy, funksional va raqamli yondashuvlar asosida yanada chuqur tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akobirov S. O'zbek tilining izohli lug'atida qo'shma so'zlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1965. – № 6. – 36-40 b.
2. Alautdinova K. Sh. “Ingliz va o'zbek tillarida logistika sohasiga oid terminlarning struktur-semantik va leksikografik talqini”: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.– Toshkent, 2022. - 158 b.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 7-8 b.
4. Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi tarixidan // O'zbek tili va adabiyoti, 2008. – № 2. – B.37-41; 2008. – № 3. – 31-36 b.
5. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
6. Маматов Н. Термин ва унинг таърифи // “Ўқитувчилар” газетаси. 1959 йил, 26 июнь. 5-б.
7. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Т: Ўқитувчи, 1968. – 4 б.
8. Hakimova D. Y. Terminologiya sohasining tarixi va dolzarb muammolari xususida. Ijtimoiy - gumanitar fanlarning dolzarb muammolari - № 3 (4) – 2024 ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz> 381- 386 b.
9. Hakimova D. Y. Konchilik leksikasi va konchilik terminlari masalasi. O'zbekiston milliy universiteti xabarlarini 2024, [1/7/1] ISSN 2181-7324 325-327 b. <http://journals.nuu.uz>

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934